

Date: 7thJanuary-2025

**HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA ISHQ TALQINI (BIR SEN
EMAS..., ENDI U..., SHE'RLARI MISOLIDA)**



Abdullayeva Mahbuba

Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridagi bosh mavzu-ishq talqini va uning qanday badiiy tashbehlari orqali yuzaga chiqarilgani haqida fikr yuritiladi. “Bir sen emas...”, “Endi u...”she'rlaridagi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: sevgi, iztirob, sog‘inch, yupanch, baxt, qadr, ichikmoq, ishq mayi.

Аннотация: В статье рассматривается трактовка любви, основной темы стихов Халимы Худойбердиевой, и то, как она раскрывается через художественные аллюзии. Анализируются идеально-художественные особенности стихотворений “Bir sen emas...”, “Endi u...”.

Ключевые слова: любовь, страдание, тоска, комфорт, счастье, ценность, пьянство, любовь.

Abstract: The article discusses the interpretation of love, the main theme of Halima Khudoyberdiyeva's poems, and how it is revealed through artistic allusions. The ideological-artistic features of the poems “Bir sen emas..”, “Endi u...” are analyzed.

Key words: love, suffering, longing, comfort, happiness, value, drinking, love.

Badiiy adabiyotning obyekti inson hisoblanib, uning qalb prizmalar, ichki histuyg‘u, kechinmalari badiiy tasvir vositalari orqali to‘la-to‘kis namoyon qilinishida she’riyatning roli katta. “Ijod ahli uchun tasavvur, poetik tafakkur-xayol kengliklari, xayol impulsulari, xayol ko‘rki, “xayol ko‘zi” nihoyatda muhim. Xayolchanlik, xayolga berilish, xayol dengiziga sho‘ng‘ish va cho‘kish-ijod ahliga xos fazilat, albatta”.⁴ Ijodkor bayon etajak voqealikni, shubhasiz, o‘zi his qilib, qalbida bir muddat uya qudirib, uni turli ohanglar ila jilolantirib, so‘ngra qo‘lga qalam olib, qog‘ozga to‘ka boshlaydi. She‘r o‘z-o‘zidan yaralmaydi, shunchaki yozilmaydi. U ijodkor qalbida toshadi, otiladi va nihoyat dunyoga keladi. Har bir so‘z ishqning nishonasi. Ishq yuqmagan so‘z sehrli bo‘lmas, o‘qiguvchiga hargiz ta’sir qilmas. Mana shunday har bir so‘zini ishqqa burkab, hovuchlarida puflab, ayabgina yozadigan shoira Halima Xudoyberdiyevadir. Qozoqboy Yo‘ldoshev ta‘biri bilan aytganda, Halima Xudoyberdiyeva- o‘zbek she’riyatiga qasirg‘ali tuyg‘ular, ruhiy po‘rtanalarining betakror tasvirini olib kirgan shoira. Shoira she’riyatining bosh mavzusi-ishq. Ijodkor “Bir sen emas...”she’rida ishqdan sarmast bo‘lgan kishilarni turli vogeliklar asosida obrazlar xilma-hilligida tasvirlaydi.

Bir sen emas, yo bir men emas,

Ishq mayini ichmoqni havas

Qilgan. Ichib o‘lgan sho‘x-u mast,

So‘ng taxiri chiqqach, degan “bas”⁵

⁴ Bahodir karim. Ruhiyat alifbosi. -Toshkent.:2018.-B.85

⁵ Xudoyberdiyeva.H. Saylanma. -Toshkent.:2022.-B.22

Date: 7thJanuary-2025

Shoira aytadiki, faqat sen va yoki men ishq mayini ishmoqlikni havas qilmaymiz. Uni jamiki Allohnning yaratiqlari xohlaydi. Ishqdan sarmast bo‘lib, dunyo tashvishlarini kipriq qoqqudek muddat bo‘lsa-da unutib, asl ishq mayidan sipqorishni orzu qilishadi va shunga talpinishadi. Ishq mayidan butun vujudini qondirib, haqiqiy lazzat tuyganidan keyin o‘zini juda baxtiyor sezib, quvnoq holatga keladi. Oxiri esa... Oxiri esa, afsus nadomatlar qilib, asl ishq deb bilgani, kishiga muhabbat qo‘yib eng katta xato qilganini tushunadi va achchiq, juda taxir ta’mni his qilishadi. Endi bas, kerak emas deganida esa, allaqachon kechikkanini tan oladi. Keyingi bandda esa, beixtiyor iqrorini tan oladi va

Suyumlidir qizlar baribir-

Tosh qalblarni yoqqan. Iydirgan

Garchand ko‘pni suygan, suydirgan-

Suyumlidir qizlar baribir.⁶

deya xitob qiladi. Ijodkor hatto tosh qalblardan ham chechak undira oladigan mo‘jizaviy kuch-ishqning ko‘rinishini qizlar misolida bayon etadi. Ishq olov, ishq otash va shu otash qizlar orqali alangananadi. Mana shu otash chegarasiz, tobora ortib borishini shoira keyingi misrada ochiq-oydin bayon etadi:

Yigitda ham emas hamma ayb,

Sho‘x nigohlar tuzoq solgan dam.

Sirli baxtdan ko‘zda shavq-u nam,

Payti kelib, bu baxt bo‘lsa kam,

Yigitda ham emas hamma ayb.

Ishq haqida oh-voh qilma, bas,

Sevgan bir sen, yo bir men emas.

O‘zbek adabiyotida ham qizlarning ko‘z qarashi jon oluvchi, jodulovchi deya ko‘p bora ta’kidlangan. Bu yerda ham ijodkor aynan sho‘x nigohlarning tuzog‘iga tushgan yigitlarni ayblamaslik va ularni to‘g‘ri tushunish kerakligini aytmoqda. Va Halima Xudoyberdiyeva eng oxirgi misrada, lirk qahramonlar- yigit va qizni ayblamasdan, silliqqina qilib, sevmagan, bu jodu ko‘zlarga asir bo‘lmagan insonning o‘zi yo‘qligi va bo‘imasligiga ishora qilib qo‘yadi.

Shoira sevgi, ishq haqida gapira turib, albatta, ikki tomonning qay biri bo‘lsada qadr topmasligi, ikki tomon ham birdek vafo qilolmasligiga ham alohida urg‘u beradi va “Endi u...” she’rida bu holatni quydagicha izohlaydi:

Bir o‘tda, bir o‘tda oh yondim,

Va lekin

Hissimni yashirmoq istayman.

Qadrimni oshirmoq istayman⁷

Ijodkor aytganidek, ayol kishi oshkora sevolmaydi. Iymanadi, yuzlari lolagun holatda lovullab yonadi, ammo aytmaydi, oshkor qilolmaydi. Chunki, u juda qattiq sevadi.

⁶ Xudoyberdiyeva.H. Saylanma. -Toshkent.:2022.-B.22

⁷ Xudoyberdiyeva.H. saylanma. -Toshkent.:2022.-B.25

Date: 7thJanuary-2025

Andisha qiladi. O‘zbek ayolida! Iymanadi... Va, hislarim yashirmoq istayman deya bor ishqilila yog‘rilgan dil izhorlarini qog‘ozga to‘kadi.

Qanday baxt, inondim, inondim.

U meni sevadi, oh, ortiq

Izlarim o‘pguday, o‘pguday.

Bir gunoh qilsam bas, men tortiq

Izimdan go‘dayday chopguday.

Shoira lirik qahramonning suyuklisiga ishqilila naqadar kuchli ekanligini “izlarim o‘pguday, izlarimdan go‘dak misol chopguday bo‘lib sevadi”, - misralari orqali bayon etadi. Nima uchun ijodkor lirik qahramonni aynan go‘dakka qiyos etdi. Sababi, go‘dak g‘uborlardan toza, beg‘ubor, ruhi pok holatda bo‘ladi. Demak, lirik qahramon ham o‘z suyuklisini xuddi go‘dak yanglig‘ pok, beg‘ubor, toza ruh ila sevadi.

Chopdi u, kuyladi serjarang

Men loqayd ko‘rsatdim o‘zimni.

Asabi tortildi ko‘p tarang,

Goh yoshlar to‘ldirdi ko‘zini.

Endi lirik qahramon o‘z suyuklisiga sevgisini oshkor qilgani hamono qiz go‘yogi loqaydlik to‘nini kiyadi. Bu bilan oshiq o‘z ishqining go‘zal yakun topmagani va suyuklisi tomonidan rad etilganini mensimaslik deya qabul qiladi va ko‘zlaril alam yoshlari ila g‘arq to‘ladi.

“Yigit ham yig‘larmi dunyoda”, -

To‘nimni teskari kiyardim...

Va g‘urur kundan kun ziyoda,

U bo‘lsa kuyardi, kuyardi.

Shu alpoz o‘tarkan kundan kun

U bir kun “bas” dedi bariga.

Endigi navbatda oshiqning holati mashuqaning g‘ashini keltirib, uning jahlini chiqaradi. Qizning nazarida yigit kishi ham yig‘lar ekanmi? G‘ururi ustunlik qilib, oshiqning sof ishqini nazarga ilmaganday ko‘rinadi, ammo ich-ichidan qiz ham oshiqni chin dildan sevar edi. Faqat, g‘urur yo‘l qo‘ymasdida, aytishga, oshkor etishga... Va bir kuni oshiqning ham paymonasi to‘lib, “bas” dedi va ketdi.

Endi men kuyarman, oh, dilkun,

U loqayd yuragim zoriga.

Qalqimas ko‘zida, hatto mung,

Bu qanday bedodlik ishqdan so‘ng!

Endi u...

Hissini yashirmoq istaydir,

Qadrini oshirmoq istaydir.

Ko‘rinadiki, endi oshiq va mashuqa o‘rni o‘zgaradi, ishq azobi mashuqani qiyin boshlaydi. Oshiq esa beparvo ko‘rinadi. Ijodkor bu yerda ham ishq azobi qanchalik qiyin ekanligini mashuqaga uqtirib qo‘ymoqchi bo‘ladi va oshiq yigitni ishqdan holi tarzda

Date: 7thJanuary-2025

tasvirlaydi. Hisni oshkor etmaslik navbati oshiqqa... Va qadrini oshirmoq istaydir mashuqaga...

Xulosa o‘rnida aytganda, Halima Xudoyberdiyeva she’riyati juda go‘zal tashbehlar, ayricha voqelik va hislar qorishmasi bilan ajralib turadi. Uning she’rlarini shunchaki o‘qib bo‘lmaydi, bilaks, she’rlarida yashaydi kishi. Ma’nosini uqadi, xayol etadi va albatta, ishqdan sarxush bo‘ladi. Bu esa, Halima Xudoyberdiyevaning iste’dodli shoira ekanidan darak beradi. Shoira aytganidek, “shunchaki yozmoqlik shoirga o‘lim...”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. -Toshkent, 2018
2. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. -Toshkent, 2022
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. -Toshkent, 2006
4. Xudoyberdiyeva.H. Saylanma. www.ziyo.com kutubxonasi